

**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yilning 1 yarim yilligiga mo‘ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ul vazir o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlari, tarkibiy korxona va tashkilotlar
1.	Klasterlarni hamkorlikda qurilish, loyihalashtirish va birgalikda investitsiyalash yo‘nalishlari bo‘yicha kengaytirish (2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmonining 2-ilova, 32.5-bandi).	2025-yil iyun	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
2.	“Xavfni tahlil qilish” elektron tizimini “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi bilan integratsiya qilish (bundan soliq va bojxona organlarining “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimlari mustasno). (2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmonning 3-ilova 3.2-bandi).	2025-yil mart	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
3.	Qurilish-pudrat tashkilotlari o‘rtasida umumiy qurilish ishlariga yakka tartibdagi tadbirkorlarni keng jalb qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish (2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son qaroring 4.1-bandi).	2025-yil iyun	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
4.	Texnik nazorat bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-amaliyot jarayonini samarali tashkil etib, buyurtmachi xizmati mutaxassislarning malakasini doimiy tarzda oshirib borish tizimini joriy etish (2022-yil 22-sentyabrdagi PQ-378-son qarorning 15.4-bandi).	2025-yil mart	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Kompetensiyani rivojlantirish instituti
5.	2025-yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Yoshlar o‘rtasida IV yozgi Osiyo va V Paraosiyo o‘yinlarini o‘tkazish uchun Olimpiya shaharchasi qurilish jarayonini muvofiqlashtirib borish (2022-yil 26-dekabrdagi PQ-547-son qaror).	2025-yil iyun	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
6.	Dastur asosida 24 ta shaharchalarning bosh rejalarini ishlab chiqish (2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-299-son qaror).	2025-yil iyun	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi, Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazi, “O‘zshaharsozlikLITI” DM
7.	Dastur asosida 58 ta qishloq aholi punktlari hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish (2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-299-son qaror).	2025-yil iyun	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi, Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish Respublika markazi, “O‘zshaharsozlikLITI” DM

8.	Qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilishning maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash (2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son qarorning 1.4-ilovasi).	2025-yil aprel	Vazir o'rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi
9.	Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligiga doir texnik reglamentni takomillashtirish. 1. Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish va muhokamadan o'tkazish. 2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Loyihani tasdiqlash uchun Hukumatga kiritish (2024-yil 28-fevraldagi PQ-91-son qarorning 2-ilova 19-bandi).	2025-yil may	Vazirning birinchi o'rinbosari, Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti
10.	Davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytlaridan nogironligi bo'lgan shaxslar erkin foydalana olishi uchun imkoniyat yaratish (2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son qarorning 3-ilova 11-bandi).	2025-yil may	Vazirning birinchi o'rinbosari, Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi, Hududiy bosh boshqarmalar
11.	“Namangan shahar oqova suv tozalash inshootini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish loyihasini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorini Vazirlar Mahkamasiga kiritish (2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori 1-ilovasi)	2025 yil mart	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSH va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
12.	Osiyo taraqqiyot banki ko'magida “Buxoro viloyatida issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish va xususiy boshqaruvga berish” loyihasini konsepsiyasi ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish (2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son qarori 1-ilova 13.1-band)	2025 yil may	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSH va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
13.	Davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida tashkil qilingan Ichimlik suv ta'minoti korxonalarining elektron reestrini yuritadi hamda ularga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi. (2022-yil 24-maydagi PQ-257-son qarori 4d-bandi).	2025-yil may	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ichimlik va oqova suv tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
14.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar Markaz so'roviga asosan (qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ma'lumotlardan tashqari) sun'iy intellektni rivojlantirish yo'nalishida zarur bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish uchun axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalariga ulanish va to'siqsiz foydalanish imkoniyatini yaratish (2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qarorning 7.2-bandi).	2025-yil aprel	Vazirning birinchi o'rinbosari, Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
15.	Nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratish va mavjud infratuzilmani moslashtirish (2024-yil 8-noyabrdagi PQ-389-son qarorning 2-ilova 8-bandi).	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari D.Adilov, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi,

			Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti
16.	“Toshkent-Sharqiy” aerodromi atrof hududida qurilayotgan bino va inshootlarning balandligi hamda ularning parvozlar havfsizligi talablariga muvofiqligini nazoratga olish (2024-yildagi 40-son bayonning 20-bandi).	2025-yil aprel	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
17.	Yangi O‘zbekiston ko‘chasining yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan konsepsiyasi asosida landshaft dizaynini ishlab chiqish: Yangi O‘zbekiston ko‘chasining ikki tarafini yanada obod qilish; poytaxt iqlimiga mos chinor, eman, lola daraxti, pisardiya, kiparis, hind nastarini, lavanda, Suriya atirguli kabi daraxt va butalarni dekorativ shaklda ekish; “Toshkent-Sharqiy” aerodromi negizida fuqaro (tadbirkorlik) aviatsiyasining zamonaviy aeroport majmuasining oldiga ikkita favvora qurish choralari ko‘rish (2024-yildagi 40-son bayonning 22-bandi).	2025-yil iyun	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi
18.	“QR” kod orqali obyekt nomi, qurilishga ruxsat olingan sana, loyiha va pudrat tashkiloti, obyektni foydalanishga topshirish muddati kabi ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish (2024-yildagi 42-son bayonning 7.5.4-bandi).	2025-yil aprel	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
19.	2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida yangidan boshlanadigan obyektlarda “hajm” uslubida qurish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish (2024-yildagi 42-son bayonning 7.6.2-bandi).	2025 yil aprel	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Iqtisodiy islohotlar va strategik rejalashtirish bo‘limi
20.	Yong‘in xavfsizligi bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish hamda binolarni yong‘indan himoya qilish vositalari uchun sinov laboratoriyasini tashkil etish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish (2024-yildagi 45-son bayonning 10-bandi).	2025-yil fevral	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti
21.	“Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 55 taga va uy-joy qurilishi hajmini 120 mingtaga yetkazish bo‘yicha monitoring yuritish.	2025-yil iyun	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Uy-joylar qurilishini rivojlantirish va maqsadli dasturlarni monitoring qilish boshqarmasi
22.	Uy-joylar qurilishi monitoringini to‘liq raqamlashtirish, bunda: Auksion savdolaridan toki uy-joylar foydalanishga topshirilgunga qadar nazorat o‘rnatilgan hamda monitoring olib boriladigan yagona tizimni ishlab chiqish.	2025-yil fevral	Vazir o‘rinbosari T.Alimatov, Uy-joylar qurilishini rivojlantirish va maqsadli dasturlarni monitoring qilish boshqarmasi

23.	“Davlat arxitektura nazoratini amalga oshirishning yangicha mexanizmini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Hukumat qaror loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil mart	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Davlat arxitektura nazorati departamenti
24.	Shaharsozlik to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlarni yuborish, qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda taqdim etgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi haqidagi nizom loyihasini ishlab chiqish.	2025-yil mart	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Davlat arxitektura nazorati departamenti
25.	I va II toifadagi obyektlarning arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish faoliyatini “Litsenziya” axborot tizimi orqali inson omili ishtirokisiz litsenziyalashni eksperiment tariqasida joriy etish: a) Vazirlar Mahkamasi qaror loyihasini ishlab chiqish, vazirlik va idoralar bilan kelishib, huquqiy eksperizadan o‘tkazish uchun Adliya vazirligiga kiritish; b) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining raqamlashtirilgan tizimiga integratsiya qilib test rejimida ishga tushirish; v) Eksperiment 6 oygacha davom etishi hamda natijasi bo‘yicha yangi tartibdagi litsenziyalash davlat xizmatini ko‘rsatish to‘xtatilishi yoki uni Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan beriladigan barcha faoliyat turlarini litsenziyalash hamda qurilish loyihalarini ekspertizadan o‘tkazuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiya qilishga joriy etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2025 yil fevral	Vazir o‘rinbosari D.Adilov, Litsenziyalash va akkreditatsiyalash bo‘limi
26.	Loyiha-qidiruv tashkilotlari elektron reytingi mezonlarini shaffofligini oshirish va yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	2025-yil mart	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
27.	Loyihaoldi hujjatlarlarni (loyihalashtirish topshirig‘i) “Shaffof qurilish” MATda raqamlashtirish.	2025-yil iyun	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
28.	2025-yil Ijtimoiy ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarini loyiha-smeta hujjatlarini sifatli ishlab chiqilishi va ekspertizaga taqdim etilishini ta‘minlash.	2025-yil aprel	Vazirning birinchi o‘rinbosari, Loyiha faoliyati va seysmik xavfsizlik talablarini muvofiqlashtirish boshqarmasi
29.	“Nukus shahri issiqlik ta‘minoti tizimini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida modernizatsiya qilish” loyihasi bo‘yicha “Saudi Tabrid” kompaniyasi (Saudiya Arabistoni) bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq texnik-iqtisodiy asoslar va konsepsiya ishlab chiqish.	2025-yil iyun	Vazir o‘rinbosari O.Jurayeva, Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSH va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi

30.	“Navoiy viloyatining Navoiy va Zarafshon shaharlari hamda Uchquduq va Konimex tumanlarida issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda individual issiqlik punktlarini o'rnatish” loyihasi doirasida texnik ko'mak (Technical Assistance) ko'rsatish bo'yicha Osiyo taraqqiyot banki roziligini olish yuzasidan muzokaralar o'tkazish.	2025-yil fevral- aprel	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSH va investitsiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi
31.	Vazirlar Mahkamasining “Ayrim toifadagi obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlashda davlat xaridlarini tashkil etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorini amaliyotga tatbiq etish.	2025-yil may	Vazir o'rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi, Hududiy konsalting markazlari, “Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
32.	Qurilish sohasida reyting, tender tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari T.Alimatov, Pudrat bozori hamda tender, reyting va byurtmachi tizimini rivojlantirish boshqarmasi, Hududiy konsalting markazlari, “Qurilish sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi
33.	Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvini transportda yetkazish va realizatsiya qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi qaror loyihasini ishlab chiqib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil may	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ichimlik va oqova suv tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
34.	Shaharsozlik va uy-joy kommunal xo'jaligi sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan 3 000 nafar mutaxassislarning malakasini oshirish.	2025-yil iyun	Vazirning birinchi o'rinbosari, Kompetensiyani rivojlantirish instituti
35.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Issiqlik ta'minoti sohasini isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish orqali iste'molchilarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlashda sifat darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil fevral	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi
36.	Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2024/2025-yillar kuz-qish davrida issiqlik energiyasi bilan ta'minlashda issiqlik ta'minoti tizimini barqaror ishlashini tashkil etish.	2025-yil fevral- mart	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari
37.	“Yangi O'zbekiston” massivlarini issiqlik energiyasi bilan ta'minlash uchun isitish qozonxonalari va issiqlik tarmoqlarini qurish ishlarini tashkil etish.	2025-yil may	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva,

			Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ko'p xonadonli uylarni kapital va joriy ta'mirlash, issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi
38.	O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida belgilangan parametrlar doirasida qurilish va rekonstruksiya ishlarini tashkil etish	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ko'p xonadonli uylarni kapital va joriy ta'mirlash, issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi
39.	Issiqlik ta'minoti korxonalaridagi debitor qarzdorlikni kamaytirish choralarini ko'rish.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va ekspluatatsiya faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Hududiy issiqlik ta'minoti korxonalari
40.	Respublikadagi 1 500 dan ortiq ko'p kvartirali uylarni mukammal va joriy ta'mirlash yuzasidan belgilangan tartibda nuqson dalolatnomalarga asosan manzilli dasturlarni ishlab chiqish va tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda tasdiqlash ishlarini amalga oshirish. Shuningdek ko'p kvartirali uylarda belgilangan ta'mirlash ishlarini boshlash choralarini ko'rish.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Hududiy boshqarmalar
41.	Ko'p kvartirali uylardagi 452 ta lift uskunalari yangilash bo'yicha belgilangan tartibda nuqson dalolatnomalarga asosan manzilli dasturlarni ishlab chiqish va tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda tasdiqlash ishlarini amalga oshirish.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti, Hududiy boshqarmalar
42.	Ko'p kvartirali uylarni boshqarish organlarining 100 nafar rahbar va xodimlarini o'qitish orqali malakasini oshirish choralarini ko'rish.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti, Hududiy boshqarmalar

43.	Ko'p kvartirali uylarga boshqaruv kompaniyalar tomonidan ko'rsatilgan kommunal xizmatlar yuzasidan shakllangan muddati o'tgan debitor qarzdorlikni undirilishini ta'minlash bo'yicha belgilangan tartibda amaliy yordam ko'rsatish.	2025-yil iyun	Vazir o'rinbosari O.Jurayeva, Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti, Hududiy boshqarmalar
-----	---	------------------	--